

SURXONDARYO VILOYATINING TURIZM SALOHIYATI

Abdullayev Bunyod O'tkirovich

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlashi instituti "Agrobiznes, buxgalteriya hisobi va raqamli texnologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi.
bunyod.abdullayev2792@gmail.com.*

Annotatsiya: Maqola Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati yani Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Oltinsoy tumanlarida joylashgan hududlar nomi Omonxona tog'li hududi, Xo'jamayxona tog'li hududi, Sangardak sharsharasi, Sariosiyo tumani Xonjiza tog' hududi, Sherobod tumani "Qizilolma" mahallasi Shalqon qishlog'i dam olish zonasi, Xo'jaikon tuz g'ori tabiiy sog'lomlashtirish sihatgohi, Xo'jaipok dam olish maskanlarining Hududlari sharoiti, imkoniyatlari va infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi haqida ma'lumotlar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boysun, Sariosiyo, Sherobod, Oltinsoy, Sangardak, Xonjiza, tog', hudud, Shalqon, Xo'jaipok, infratuzilma.

Аннотация: Статья Туристический потенциал Сурхандарьинской области: Байсунский, Сариосийский, Шерабадский и Алтынсайский районы Омонханский горный район, Ходжамайхонский горный район, Сангардакский водопад, Сариосийский район, Ханджизинский горный район, махалля и зона отдыха «Гызыллмаг» Шерабадского района, природная лечебница Ходжайконская соляная пещера, Зоны отдыха Ходжаипок освещаются информацией об условиях, возможностях и инфраструктуре.

Annotation:Article Tourism potential of Surkhandarya region: Boysun, Sariosiya, Sherabad and Altynsay districts Omonkhana mountainous area, Khojamaykhona mountainous area, Sangardak waterfall, Sariosiya district, Khanjiza mountainous area, Sherabad district's "Qizilolmag" mahalla i recreation area, Khojaikon salt cave natural health resort, Khojaipok recreation areas are covered with information about the conditions, opportunities and infrastructure.

Sayyohlikning barcha yo'nalishlari istiqboli uchun ulkan salohiyatga ega.

Bugungi kunda viloyatimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar vohamizning qadimiy yodgorliklari va muqaddas qadamjolari bilan birga o'zbekona yashash tarzimiz, milliy urf-odat va an'alarimiz bilan ham yaqindan tanishishga qiziqish bildirmoqdalar.

2019-yilda viloyat turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha mavjud turizm infratuzilmani yanada rivojlantirish va yangilarini barpo etish bo'yicha

185,2 mlrd.so'm mablag' o'zlashtirish evaziga 70 ta loyiha amalga oshirilishi, xususan:

- ekologik va ekzotik turizm sohasini, ya'ni kichik turizm zonalari-tog' klasterlarini tashkil qilish ob'ektlarini 3 taga;
- gastronomik turizm yo'nalishi ob'ektlarini 40 taga;
- 25 ta turistik marshrutlarini 69 taga;
- 5 ta turoperatorlik faoliyaliti sub'ektlarini 15 taga;
- turistik transport vositalarini 15 taga;
- mavjud 30 ta joylashtirish vositalarini 52 ta mehmonxonaga va 63 ta mehmon uylariga oshirish orqali, undagi o'rinlar sonini 2500 taga yetkazish va 90 % ga oshishi ko'zda tutilgan.
- Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 may kunidagi 324-sonli qarori bilan
- Boysun tumanida Omonxona qishlog'i, Zovboshi tog'li hududi, Darband qishlog'i hududlarini o'z ichiga olgan – Boysun kichik turizm zonasi;
- Sariosiyo va Uzun tumanlarida Xonjiza tog' tizmalari yon bag'rilarida hamda Sariosiyo tumani Sangardak qishlog'i hududlarida – Sariosiyo kichik turizm zonasini;
- Sherobod tumani Shalqon qishlog'i, Xo'jaikon tuz g'ori hududlarida hamda mevali bog'larni o'z ichiga olgan – Sherobod kichik turizm zonasini tashkil etish hamda ularda zamonoviy mehmonxona majmualarini, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turizm ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ob'ektlar qurish, shuningdek zamonaviy muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini tashkil etish belgilangan.

Surxondaryo viloyati:

- Tashkil topgan sanasi: 1941-yil 6-mart;
- Maydoni: 20,1 ming km²;
- Aholisi: 2,5 mln.;
- Chegara uzunligi: 664,7 km;
- Markazi: Termiz shahri;
- Etnik tarkibi: o'zbek, tojik, turkman, rus, tatar, koreys, qozoq va boshqalar;

Qo'shni davlatlar bilan chegaradoshligi:

Tojikiston davlati bilan – 343,1 km;

Afg'oniston davlati bilan – 143,0 km;

Turkmaniston davlati bilan – 93,3 km;

Qashqadaryo viloyati bilan – 85,3 km.

Madaniy maskanlar:

- San'at saroyi;
- Arxeologiya muzeyi;
- Viloyat qo'g'irchoq teatri;
- Ziyoratgohlar;

- Buddaviylik inshootlari;
 - Provoslav cherkovi.
- So'lim go'shalar:
- Sangardak sharsharasi;
 - Zovboshi maskani;
 - Xo'jamoyxona;
 - Omonxona;
 - Xo'jaipok;
 - Xo'jaikon tuzg'ori.

BOYSUN TUMANI


HUDUD SAVOLNOMASI	OMONXONA TOG'LI HUDUDI
<i>Hudud nomi</i>	Omonxona tog'li hududi
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	1.0 gektar
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Boysun tuman markazidan 8 km
<i>Hududga yaqin qo'shimcha turistik ob'ektlar</i>	Omonxona shifobaxsh bulog'i, Omonxona sihatgoxi
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	100 o'rinli dam olish maskani
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqar suv mavud
<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	Ushbu hududda Omonxona bulog'i joylashgan. Uzoq yillik tarixga ega Omonxona quyuq archazorlar bilan qoplangan. Omonxona buloq suvi tarkibida kremney kislota, temir, alyuminiy va boshqa mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega. Tananing ichki organlarini yuvishda qo'llaniladigan gemodez suyuqligi bilan solishtirilsa, foydali va zararsizligiga ko'ra Omonxona buloq suvi bir necha marta undan ustun turadi
<i>Qurish mumkin bo'lgan ob'ektlar</i>	Mehmonxona, kemping, Sog'lomlashtirish markazi, Madaniy ko'ngilochar maskanlar, Kattalar va bolalar dam olish maskani, Qishki oromgoh



1-rasm. Boysun tumani Omonxona tog'li hududi

BOYSUN TUMANI

HUDUD SAVOLNOMASI	XO'JAMAYXONA TOG'LI HUDUDI
<i>Hudud nomi</i>	Xo'jamayxona tog'li hududi
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	1.0 gektar
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Boysun tuman markazidan 30 km
<i>Hududga yaqin qo'shimcha turistik ob'ektlar</i>	Xo'jamayxona ota ziyoratgohi
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	Mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan supalar mavjud
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqar suv mavjud
<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	Ushbu hududda bahor, yoz va kuz oylarida sayohatchilarning ko'pligidan ularni joylashtirish imkoniyati mavjud emas. Sayohatchilar ushbu hududga noyob bo'lgan viqorli tog'larni hamda hush manzara tabiatni tomosha qilish uchun tashrif buyurishadi. Xo'jamayxona hududida mashhur buloq joylashgan. Bu buloqdan ichimlik suvi olishda keng foydalaniladi.
<i>Qurish mumkin bo'lgan ob'ektlar</i>	Mehmonxona, kemping, Sog'lomlashtirish markazi, Madaniy ko'ngilochar maskanlar, tog' dor yo'li, bolalar dam olish maskani




2 – rasm. Boysun tumani Xo‘jamayxona tog‘li hududi

SARIOSIYO TUMANI

HUDUD SAVOLNOMASI	SANGARDAK TOG‘LI HUDUDI
<i>Hudud nomi</i>	Sangardak sharsharasi
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Termiz shahridan 205 km, Sariosiyo tuman markazidan 29 km
<i>Hududga yaqin qo‘shimcha turistik ob‘ektlar</i>	Sangardak sharsharasi, Xonjiza dam olish maskani
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	Sharshara atrofida kichik supalar tashkil etilgan, aholi turar joylari mehmon uylariga aylantirilmoqda
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta‘minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqar suv mavjud
<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	Ushbu hudud Sharg‘un tog‘ tizmasida joylashgan bo‘lib 200 m yuqoridan sharshara suvlari tushadi. Sharshara suvlari yil bo‘yi to‘xtovsiz oqadi. Ushbu hududga asosan bahor va yoz oylarida respublikamiz aholisi va mahalliy sayyohlar, balki qo‘shni Tojikiston Respublikasidan ham dam olish maqsadida sayyohlar tashrif buyuradi. Sangardak sharsharasi hududida tashrif buyurgan sayyohlarni joylashtirish maskanlari yetishmasligi sababli bu hudud mavsumiy sanaladi. Ushbu hududga mavsum davomida 350-400 ming nafar sayyohlar tashrif buyuradi.

*Qurish mumkin bo'lgan
ob'ektlar*

Mehmonxona, kemping, Sog'lomlashtirish markazi,
Madaniy ko'ngilochar maskanlar, Kattalar va bolalar
dam olish maskani, Qishki oromgoh



3-rasm. Sariosiyo tumani Sangardak sharsharasi

SARIOSIYO TUMANI

HUDUD SAVOLNOMASI	XONJIZA TOG' KLASSTERI
<i>Hudud nomi</i>	Sariosiyo tumani Xonjiza tog' hududi
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	260 gektar
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Termiz shahridan 200 km, Sariosiyo tumanidan 29 km
<i>Hududga yaqin qo'shimcha turistik ob'ektlar</i>	Sangardak sharsharasi,
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	Tog'li hudud, bino mavud emas
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqar suv mavjud
<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	“Xonjiza” hududida kichik mehmonxona va mehmon uylari tashkil qilish uchun 30.5 gektar yer maydoni ajratilganligi. “Xonjiza” massivi dengiz sathidan 2000 metr balandlikda joylashganligi va tabiatining yozda juda salqinligi, qishda tushgan qorlarning iyun' oyi oxirigacha saqlanib qoladi. Ushbu hudud asosan bahor va yoz oylarida odamlar bilan gavjum bo'ladi. Xonjiza tog' hududi o'zining takrorlanmas tabiati va o'zining betakror tabiati bilan mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Qurish mumkin bo'lgan ob'ektlar

Mehmonxona, kemping, Sog'lomlashtirish
markazi, Madaniy ko'ngilochar maskanlar,
Kattalar va bolalar dam olish maskani, Qishki
oromgoh




4-rasm. Sariosiyo tumani Xonjiza tog' hududi

SHEROBOD TUMANI

HUDUD SAVOLNOMASI	SHALQON TOG' HUDUDI (KO'HITANG TOG' TIZMASI)
<i>Hudud nomi</i>	Sherobod tumani "Qizilolma" mahallasi Shalqon qishlog'i dam olish zonasi
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	836,7 gektar
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Sherobod tuman markazidan 41 km, Termiz shahridan 115 km
<i>Hududga yaqin qo'shimcha turistik ob'ektlar</i>	"Surxon beshbuloq" va "Neftchi" bolalar oromgohi
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	Sihatgoh ob'ekti
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqar suv mavjud
<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	Sherobod tumanining tog'li va infratuzilmalarga qulay hudud. Bu hudud markazidan uzoq bo'lishiga qaramasdan bahor va yoz oylarida dam oluvchilar tartibli va tartibsiz holda dam olish nuqtalari tashkil qilib dam oladilar. Ushbu hudud qish faslida qalin qor bilan qoplanishini hisobga olib bu hududda qishki dam olish maskani qurish uchun qulay hudud hisoblanadi.

*Qurish mumkin bo'lgan
ob'ektlar*

Mehmonxona, kemping, Sog'lomlashtirish markazi,
Madaniy ko'ngilochar maskanlar, Kattalar va bolalar
dam olish maskani, Qishki oromgoh va dam olish
maskani



5-rasm Sherobod tumani "Qizilolma" mahallasi Shalqon qishlog'i dam olish zonasi

SHEROBOD TUMANI

HUDUD SAVOLNOMASI	XO'JAIKON TUZ G'ORI HUDUDI
<i>Hudud nomi</i>	Xo'jaikon tuz g'ori tabiiy sog'lomlashtirish sihatgohi
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	16 gektar
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Sherobod tumani markazidan 63 km.
<i>Hududga yaqin qo'shimcha turistik ob'ektlar</i>	Tuz tog'i, mahalliy G'o'rim buloq shifobaxsh bulog'i, Sherobod Sement zavodi, Zaravutsoy qadimiy yodgorliklari
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	Hech qanday ob'ekt yo'q, tog'li hudud
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi mavjud
<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	Bu hudud aholi yashash markazlaridan uzoq bo'lishiga qaramasdan butun O'zbekiston bo'ylab o'ziga xos, yoz oylarida mavsumiy tabiiy oromgohga bronxit, astma, allergik kasalliklar bilan og'rigan bemorlar ko'plab tashrif buyurishadi. Ushbu hududga tashrif buyurgan bemorlarga joylashtirish maskanlari yetishmasligi sabab aholi uylarida istiqomat qilishadi.

Qurish mumkin bo'lgan ob'ektlar

Mehmonxona, kemping, Sog'lomlashtirish markazi,
Madaniy ko'ngilochar maskanlar, Kattalar va
bolalar dam olish maskani, Qishki oromgoh va dam
olish maskani



6-rasm. Sherobod tumani Xo'jaikon tuz g'ori hududi

OLTINSOY TUMANI

HUDUD SAVOLNOMASI	XO'JAIPOK SANATORIYASI HUDUDI
<i>Hudud nomi</i>	Xo'jaipok dam olish maskani
<i>Ajratilgan yer maydoni:</i>	6.9 ga
<i>Loyihaning qiymati:</i>	Cheklanmagan
<i>Hududning shaxar markazidan uzoqlik masofasi</i>	Oltinsoy tuman markazidan 18 km,
<i>Hududga yaqin qo'shimcha turistik ob'ektlar</i>	So'fi Olloyor ziyoratgohi, Xo'jaipok ziyoratgohi
<i>Hozirgi kunda qay xolatda:</i>	Qurilishi tugullanmagan ob'ekt
<i>Hududning infratuzilmalar bilan ta'minlanganligi</i>	elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqar suv mavjud

<i>Tanlangan yer maydonining qulayligi, boshqa hududlarga nisbatan afzalligi</i>	Ushbu hududga bahor yoz oylarida kunlik o'rtacha 800-950 kishi dam olish uchun tashrif buyuradi. Hozirgi kunda ushbu hududda prezident topshirig'i bilan zamonaviy sanatoriya qurilishi rejalashtirilgan. Ushbu hududga mahalliy va qo'shni respublikalardan dam olish va davolanish uchun tashrif buyuradi. Ushbu hududda qishki dam olish maskani yo'qligi sababli bu hududga asosan bahor yoz oylarida tashrif buyurishadi. Xo'jaipok dam olish maskanida Xo'jaipok shifobahsh bulog'i mavjud. Ushbu buloqdan chiqayotgan suv odam organizmiga kerakli minerallarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu suv teri, oshqozon-ichak, artrit, asab kasalliklari, akusher-ginekologik kasalliklariga davo hisoblanadi
<i>Qurish mumkin bo'lgan ob'ektlar</i>	Zamonaviy sog'lomlashtirish markazi



7-rasm. Oltinsoy tumani Xo'jaipok dam olish maskani

Taklif:

- Surxondaryo viloyatining markaziy qismini usluksiz elektr quvvati va tabiiy gaz bilan ta'minlash, shuningdek, muqobil elektr manbaalarini joriy etish;
- Mehmonxona sharoitini yaratish, xizmat sifatini oshirishva oziq – ovqat bozorini tashkil etish;
- Chet ellik mehmonlarga tajrimon xizmatlarini tashkil e'tish;
- Valyutalar kupyuralarni almashishni yo'lga qo'yish;
- Hududlarning sanitar tozalash tizimini tashkil etish, jumladan, termitlarga qarshi kurashish;
- Sayyohlar tashrif buyuradigan joylarda bepul Wi-fi hududlarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Surxondaryo viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi ma'lumoti.
2. Туризм и туристские ресурсы в России. 2004: Стат.сб. / Росстат. – М., 2004. – С. 267.
3. Управление развитием туризма в регионе. Опыт реализации Стратегии Республики Карелии / Институт экономики КарНЦ РАН, Под общей ред. Ю.В. Савельева, О.В. Толстогузова. – Петрозаводск: Изд-во Карельского научного центра РАН, 2008. – С. 141.
4. Хазова Д.С. Квалитативное моделирование развития туризма в Республике Алтай: сравнение однокритериальной и многокритериальной моделей / Д.С. Хазова // Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2014. – № 35 (221) – 2014 сентябрь. – С. 59–67.
5. Халиков М.И. Управление и менеджмент: теоретико-методологический анализ: монография / М.И. Халиков. – М.: Флинта, 2013. – С. 104.
6. Шайдаров А.Ю. Экономический механизм формирования, функционирования и развития региональной туристско-рекреационной системы: на примере Северо-западного региона: автореф. дис.... канд. экон. наук: 08.00.05 / Шайдаров Александр Юрьевич. – Санкт-Петербург, 2006. – С. 23.
7. Шарафанова Е.Е. Деловой туризм в регионах Российской Федерации: монография / Е.Е. Шарафанова. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУСЭ, 2011. – С. 143.
8. Шарафутдинов В.Н. Впишется ли Сочинская олимпиада в реалии мирового туризма? / В.Н. Шарафутдинов // ЭКО. – 2008. – № 9.
9. Шарыгин М.Д. Опорный каркас устойчивого развития региона (теоретический аспект) / М.Д. Шарыгин, Н.Н. Назаров, Т.В. Субботина // Научный журнал Пермского университета Географический вестник. – 2005. – №1-2. – С. 15–22.
10. Шibaков В.Г. Город как сложная эколого-социально-экономическая система [электронный ресурс] / В.Г. Шibaков, Т.В. Шibaкова // журнал 143 «Экономическое Возрождение России». – 2011. – №2. – Режим доступа: <http://ekvr.narod.ru/eksistem2.htm>.
11. Шорова Б.В. Алгоритм разработки и реализации программно-целевого метода управления устойчивым развитием региона / Б.В. Шорова, А.Х. Думанова // Вопросы экономики и права. – 2012. – № 2.
12. Штрек П.А. Экологизация управления в сфере туристско-рекреационных услуг: автореф. дис.... канд. экон. наук: 08.00.05 / Штрек Павел Александрович. – Санкт-Петербург, 2010. – С. 16.
13. Уемов А.И. Системный подход и общая теория систем / А.И. Уемов. – М.: Мысль, 1978. – С. 272.
14. Федюкова Н.В. Экономическая эффективность туристского комплекса приграничного региона (на примере Псковской области): автореф. дис.... канд. экон. наук: 08.00.05 / Федюкова Наталья Владимировна. – Санкт-Петербург, 2011. – С. 22.